



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

DEMOGRAFIK HOLATI

*2023- yil
yanvar-iyun*



NAVOIY VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2023- yil 1- iyul holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Navoiy viloyatida 2023- yil 1- iyul holatiga doimiy aholi soni **1065,3** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **9,8** ming kishiga yoki **0,9 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **522,5** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **49,0 %**), qishloq aholisi soni **542,8** ming kishi (**51,0 %**)ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

1065,3 ming kishi

Tabiiy o'sish

+9,8 ming kishi

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

Shahar




49,0%

Qishloq



51,0%

Aholining tabiiy harakati, kishi




■ Tug'ilganlar soni

■ Vafot etganlar soni

—●— Aholining tabiiy o'sishi


Navoiy viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2023- yil yanvar-iyun



Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni


2023- yil 1- iyul holatiga



2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, viloyat doimiy aholisi sonining **31,0 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **57,4 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **11,6 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2023- yil 1- iyul holatiga




Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi

1- iyul holatiga, kishi

	2022- yil	2023- yil	O'sish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	1 044 063	1 065 322	102,0
<i>shaharlar:</i>			
Navoiy	153 251	158 495	103,4
Zarafshon	86 046	87 328	101,5
G'ozg'on	8 999	9 183	102,0
<i>tumanlar:</i>			
Karmana	134 004	137 246	102,4
Konimex	37 065	37 475	101,1
Qiziltepa	157 779	160 388	101,6
Navbahor	117 726	119 859	101,8
Nurota	87 190	88 772	101,8
Tomdi	15 671	15 735	100,4
Uchquduq	38 731	39 366	101,6
Xatirchi	207 601	211 475	101,9

Navoiy viloyati bo'yicha aholi zichligi

2023- yil 1-iyul holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi




Navoiy viloyatida 2023- yil 1- iyul holatiga 1 kvadrat kilometrga o'rtacha **9,6** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **0,2** kishiga ortgan (2022- yilning shu davrida 1 kv.km.ga **9,4** kishi).


Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligining eng yuqori ko'rsatkichi Zarafshon shahrida **4 365,0** kishi, Navoiy shahrida **2 641,7** kishi kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Tomdi tumanida **0,4** kishi, Uchquduq tumanida **0,8** kishi, Konimex tumanatida **4,0** kishini tashkil etgan.

Navoiy viloyati bo'yicha aholi zichligining dinamikasi

1- iyul holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi



QAYD ETILGAN TUG‘ILISHLAR



Tug‘ilganlarning taqsimlanishi


Yanvar




Fevral



Mart




Aprel



May



Iyun



Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-iyun, kishi

Hudud nomi	Tug‘ilganlar soni	Koeffitsiyenti (%)
Navoiy sh.	2521	32,3 %
Xatirchi	2401	23,0 %
Karmana	1686	24,9 %
Qiziltepa	1632	20,6 %
Navbahor	1311	22,1 %
Nurota	1129	25,8 %
Zarafshon sh.	1087	25,2 %
Uchquduq	456	23,4 %
Konimex	368	19,8 %
Tomdi	119	15,2 %
G‘ozg‘on sh.	103	22,7 %


2023- yil yanvar-iyun oylarida **12813** ta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti **24,4** promilleni tashkil etdi hamda bu ko‘rsatkich 2022- yilning shu davriga nisbatan **0,8** promillega ko‘payganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-iyun oylarida **23,6** promilleni tashkil etgan).

Tug‘ilishlarning chaqaloqlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-iyun

3 nafar va undan
ortiq egizak
2 ta

2 nafar egizak
144 ta



1 nafar


12 667 ta

2023- yilning yanvar - iyun oylarida qayd etilgan tug‘ilishlarda 1 nafar va egizak tug‘ilgan chaqaloqlar soni bo‘yicha tahlil etilganda quyidagi ulushga ega bo‘lganligi kuzatildi:

- 1 nafar – **98,9** %
- 2 nafar – **1,1** %
- 3 nafar va undan ortiq – **0,02** %


O‘limning asosiy sabablari bo‘yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-iyun, kishi



2023- yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **65,0** % i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **9,6** % i – o‘simtalardan, **2,6** % i – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, **6,5** % i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **5,4** % i – ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, **0,6** % i – yuqumli va parazitari kasalliklardan, **10,3** % i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

VAFOT ETGANLAR



Vafot etganlarning taqsimlanishi

Yanvar

Erkaklar 141 Ayollar 103



Fevral

Erkaklar 206 Ayollar 151



Mart

Erkaklar 171 Ayollar 145



Aprel

Erkaklar 215 Ayollar 137



May

Erkaklar 152 Ayollar 119



Iyun

Erkaklar 238 Ayollar 193




Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-iyun, kishi

Hudud nomi	Soni	Koeffitsiyenti (%)
Navoiy sh.	392	5,0 %
Xatirchi	338	3,2 %
Karmana	271	4,0 %
Qiziltepa	258	3,3 %
Nurota	215	4,9 %
Navbahor	201	3,4 %
Zarafshon sh.	111	2,6 %
Konimex	90	4,8 %
Uchquduq	47	2,4 %
Tomdi	31	4,0 %
G'ozg'on sh.	17	3,8 %

2023- yilning yanvar-iyun oylarida 1971 ta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti 3,7 promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilning shu davriga nisbatan promillega o'zgarmaganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-iyun oylarida 3,7 promille bo'lgan).

QAYD ETILGAN NIKOHLAR



Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-iyun, birlik

Navoiy sh.	579	7,4 ‰
Xatirchi	543	5,2 ‰
Qiziltepa	417	5,3 ‰
Karmana	389	5,7 ‰
Navbahor	268	4,5 ‰
Zarafshon sh.	199	4,6 ‰
Nurota	178	4,1 ‰
Uchquduq	88	4,5 ‰
Konimex	76	4,1 ‰
Tomdi	18	2,3 ‰
G'ozg'on sh.	13	2,9 ‰

2023- yilning yanvar-iyun oylarida **2768** ta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **5,3** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilning shu davriga nisbatan **0,6** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-iyun oylarida **5,9** promille bo'lgan).

Nikohlarning taqsimlanishi

Yanvar

Shahar
199



Qishloq
174



Fevral

Shahar
194



Qishloq
160



Mart

Shahar
235



Qishloq
181



April

Shahar
223



Qishloq
154



May

Shahar
292



Qishloq
296



Iyun


Shahar
339



Qishloq
321



NIKOHDAN AJRALISHLAR



Nikohdan ajralishlarning taqsimlanishi

Yanvar

Shahar
84



Qishloq
43



Fevral

Shahar
75



Qishloq
57



Mart

Shahar
66



Qishloq
45



Aprel

Shahar
79



Qishloq
55



May

Shahar
72



Qishloq
72



Iyun

Shahar
56



Qishloq
51



Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-iyun, birlik


Navoiy sh.	182	2,3 ‰
Xatirchi	137	1,3 ‰
Karmana	122	1,8 ‰
Qiziltepa	86	1,1 ‰
Navbahor	75	1,3 ‰
Zarafshon sh.	57	1,3 ‰
Nurota	33	0,8 ‰
Uchquduq	32	1,6 ‰
Konimex	31	1,7 ‰
Tomdi	0	0,0 ‰
G'ozg'on sh.	0	0,0 ‰

2023- yil yanvar-iyun oylarida **755** ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,4** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilning shu davriga nisbatan promillega o'zgarmaganligi kuzatildi (2022- yil yanvar-iyun oylarida **1,4** promille bo'lgan).

Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-iyun


farzandsiz ajrashgan



2 va undan ortiq farzand bilan ajrashgan

2023- yil yanvar-iyun oylarida Navoiy viloyatida jami nikohdan ajrashganlarning **50,4 %** i farzandsiz, **27,5 %** i bitta farzand bilan va **22,1 %** i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.

JAMI KO'CHIB KELGANLAR



Ko'chib kelganlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-iyun, kishi

Navoiy sh.	1961	25,1 ‰
Karmana	870	12,9 ‰
Zarafshon sh.	682	15,8 ‰
Xatirchi	246	2,4 ‰
Uchquduq	244	12,5 ‰
Navbahor	184	3,1 ‰
Qiziltepa	176	2,2 ‰
Nurota	151	3,4 ‰
Konimex	107	5,8 ‰
Tomdi	84	10,7 ‰
G'ozg'on sh.	7	1,5 ‰

2023- yilning yanvar-iyun oylarida **4712** ta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti **9,0** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilning shu davriga nisbatan **0,1** promillega ko'payganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-iyun oylarida **8,9** promille bo'lgan).

Ko'chib kelganlarning taqsimlanishi

Yanvar

Erkaklar 316 Ayollar 358



Fevral

Erkaklar 346 Ayollar 455



Mart

Erkaklar 366 Ayollar 352



April

Erkaklar 393 Ayollar 395



May

Erkaklar 437 Ayollar 315




Iyun

Erkaklar 386 Ayollar 593



JAMI KO'CHIB KETGANLAR



Ko'chib ketganlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-iyun, kishi

Navoiy sh.	1580	20,3 ‰
Zarafshon sh.	832	19,3 ‰
Karmana	728	10,8 ‰
Xatirchi	611	5,8 ‰
Uchquduq	425	21,8 ‰
Qiziltepa	357	4,5 ‰
Navbahor	321	5,4 ‰
Nurota	292	6,7 ‰
Konimex	286	15,4 ‰
Tomdi	250	32,0 ‰
G'ozg'on sh.	7	1,5 ‰

2023- yilning yanvar-iyun oylarida **5689** ta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti **10,8** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilning shu davriga nisbatan **1,9** promillega oshganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-iyun oylarida **8,9** promille bo'lgan).

Ko'chib ketganlarning taqsimlanishi

Yanvar



Fevral



Mart



Aprel



May



Iyun



Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

Aholining migratsion o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi

Tel: 79 223-07-41